



## Yangi avlod darsliklarini yaratishga qo'llaniladigan talablar.

**Nurmatova Madina  
Odiljon qizi**

*Qo'qon DU v.b. dotsent o'qituvchi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida yangi avlod darsliklarini yaratishga qo'yiladigan konseptual talablar tahlil qilinadi. Darsliklarning nafaqat axborot manbai, balki o'quvchilarda amaliy ko'nikma va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi vosita sifatidagi ahamiyatini yoritib bergan. Maqolada darsliklarning dizayni, muvofiqligi masalalari atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yangi avlod darsliklari, darslik dizayni, multimedia komponentlari, xalqaro standartlar, integratsiyalashgan ta'lim, didaktik talablar.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida darslik nafaqat bilimlar manbai, balki o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi asosiy muloqot hamda metodik vosita hisoblanadi. Bugungi kunda jahon ta'lim maydonida axborot texnologiyalarining jadal kirib kelishi va bilimlar hajmining ortishi darsliklar mazmuniga, ularning shakli va didaktik vazifalariga nisbatan talablarni tubdan o'zgartirdi.

Darslik – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

motivatsion vazifa – bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan

ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

muvoqilashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Yangi avlod darsliklarini yaratishda quyidagi talablar inobatga olinishi lozim:

1. Har bir o'quv predmeti uchun yaratilgan darslikda ilmiy bilimlar tizimi, uning hajmi tegishli o'quv dasturi talablariga va u mo'ljallagan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak;

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlar nazariy, g'oyaviy jihatdan tizimli, izchil, keltirilayotgan dalil, isbotlar ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil qilinishi, aniq ta'rif etilishi, mavzular yuzasidan zarur xulosalar chiqarilishi asosida ta'lim oluvchilarda dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy sifatlar hamda e'tiqodni tarbiyalay olishi lozim;

3. O'quv darsliklarda bayon etilayotgan bilimlar amaliyot bilan bog'lanishi, jamiyat hayotining barcha – ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida erishilgan yutuqlarni tavsiflaydigan dalillar bilan boyitilishi, ularning tahlili bilan boyitilishi zarur;

4. Darsliklarda bayon qilinayotgan mavzular o'quv materialining xarakteriga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi, ba'zi materiallar rasm, surat, sxema, diagramma kabilar bilan boyitilishi shart;

5. Bayon qilinayotgan materiallar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, lo'nda, ixcham jumlar asosida yoritilishi kerak;

6. Darslikning tashqi ko'rinishi bezagi muayyan yosh davri ta'lim oluvchilarning estetik didlariga, psixologik xususiyatlariga mos kelishi lozim;

7. O'quv darsliklarining tegishli yosh davri o'quvchilari uchun joriy qilingan gigiyena qoidalariga muvofiq bo'lishi talab qilinadi;

8. Darsliklar fanda isbot talab qilinmagan, ma'lum ta'rif va qoidalarga ega bo'lmagan, muammoli masalalardan xoli bo'lishi zarur.

Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar tegishli ravishda Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim yoki Xalq ta'limi vazirliklari tomonidan muayyan ta'lim muassasalari uchun tavsiya etiladi.

Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga

ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

Zamonaviy darslik nafaqat bilim berishi, balki ilovalari orqali o'quvchini ta'lim jarayoniga faol jalb qilishi, uni mustaqil izlanishga undashi lozim. Darsliklar mazmunining PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari talablariga moslashtirilishi o'quvchilarimizning jahon miqyosida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi. Matnlarning soddaligi, vizual dizaynning jozibadorligi va amaliy topshiriqlarning hayotiyliigi darslikning samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardir.

Xulosa qilib aytganda, yangi avlod darsliklarini yaratish jarayoni shunchaki axborotni jamlash emas, balki chuqur pedagogik, psixologik va texnologik tahlilni talab etadigan murakkab jarayondir. Demak, yangi avlod darsliklari ta'lim mazmunini yangilashning bosh mezoni bo'lib, ularni zamon talablari asosida takomillashtirib borish davlat ta'lim siyosatining ustuvor vazifasi bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. . B.Xodjayev-Umumiy pedagogika nazariyasi va adabiyoti. Toshkent 2017 yil, "Sano-standart" nashriyoti
2. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh. Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU. 2012.
3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019
4. Nurmatova, Madina. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3 (2023): 151-154.
5. Nurmatova, Madina Odiljon Qizi. "IS'XOQXON IBRATNING ILM VA MA'RIFAT SOXASIDAGI XIZMATLARI." *Academic research in educational sciences* 3.NUU Conference 2 (2022): 419-422.
6. НУРМАТОВА, МАДИНА ОДИЛЖОН КИЗИ. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." *Молодежь и XXI век-2015*. 2015.
7. Нурматова, Мадина. "УЧИТЕЛЬ-РУКОВОДИТЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 8-2 (2018): 58-60.
8. Мадина, Нурматова. "ПРОИЗВЕДЕНИЕ" ОДОБ АС-САЛИХИН" НАСТОЛЬНАЯ КНИГА С
9. ВЕЖЛИВОСТИ И ПРАВИЛ ПОВЕДЕНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 5-6 (2018): 53-55. Madina, N. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF CIRCULATION IN THE TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS ON THE BASIS OF INDICATIVE EDUCATIONAL MODELS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(11), 144-146.
10. Мадина, Н. (2024). Педагогические условия совершенствования системы циркуляции в подготовке будущих специалистов на основе показательных образовательных моделей. *Евразийский журнал академических исследований*, 4 (11), 144-146.